

NOTINCH OILA FARZANDLARI BILAN ISHLASH PSIXOLOGIYASI

Yuldosheva Nasiba Muxtorovna

*Buxoro viloyati Buxoro tuman 40-umumiy
o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning farzand tarbiyasiga ta'siri, oila jamiyatning bosh bo'g'ini ekanligi va ayrim nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan farzandlar bilan olib boriladigan psixologik ishlar haqida baypn etilingan.

Kalit so'zlar: Oila, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, nosog'lom muhit.

Oila – bu ijtimoiy tarixiy belgiga ega bo'lgan, muayyan tuzilishiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhning ko'rinishidir, chunonchi uning a'zolarini qarindosh urug'chilik, nikox, turmush sharoiti birligi, odob-oxloq umumiyliigi, ma'naviy ehtiyojligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, idealogik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan tortib mustaqillik, istiqbolga nisbatan sodiqlik, vatanparvarlik, shukronalik, an'ana shaxsiy qiziqishni jamiyat, mamlakat qizishiga bo'ysundirish xislati, qat'iylik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy xislar shakllana boshlaydi. Asta-seking tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mexri, ota-onaga muhabbat va shafqat singari teranlik tuyg'ulari namoyon bo'la boradi. Oilaviy turmushdagi samimiy va okilona munosabatlar, iliq psixologik muhit ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngillilik, iltifotlik, sabrlilik, to'g'rilik, yaxshilik, uyatchanlik, yumshoklik, dilkashlik, mexribonlik, talabchanlik, mexnatsevarlik, vijdonlilik, mexnatga ma'suliliyatlilik, ozodalik, izzat-nafslilik, tejab-tergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi.

Agarda oilaviy turmush munosabatlari ko'pollik, andishashizlik negiziga ko'rilgan bo'lsa u xolda oila a'zolari ruxiy dunyosida kekkayganlik, pismiklik, jamoatchilik ma'qullagan narsalarni va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakat qoidalarini sezmaslik, yalqovlik, ma'suliyatsizlik, ifloslik, shuxratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, dimog'dorlik singari illatlar yuzaga keladi va shakllanadi. Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli - murosasiz tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya usullarini ko'zllaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, masuliyat bilan uning axlokiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini - "xali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", kabilida maqullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublari o'rganilib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li

shaxslarning tazyiqini noto‘g‘ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko‘pincha bu-bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo‘qotib qo‘yish yoki uning ko‘ngli qolishidan qo‘rqib ham noto‘g‘ri tarbiya yo‘llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo‘lishlari kerak.

Yolgiz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo‘lgan oilalarning paydo bo‘lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikoxsiz paydo bo‘lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo‘lishi ham (yoshi o‘tib borayotganligidan nikoxsiz bo‘lsa ham bitta farzand tug‘ib, uni yolgiz o‘zi katta qiladi), juda yosh bo‘lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayok ona bo‘lib qolgan holatlar) ham mumkin. Odatda turli sabablarga ko‘ra yolgizlanib qolgan noto‘liq oila a‘zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolgizlikka mahkum bo‘ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo‘lgan uy-yumushlarining bir qismini: o‘z elkasiga olishga majbur bo‘ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no‘noq bo‘lgani uchun uning do‘stlari kam bo‘ladi. Asosiy muloqot obyekti ona bo‘lib, u ham ko‘pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga yetarli e‘tibor berolmaydi. Ayniqsa, o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilig‘ini juda ko‘ngilariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko‘taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo‘lib qoladi. Injiq bolani yolgiz o‘zi tarbiyalashga majbur bo‘lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi.

Ko‘pincha bunday ona o‘zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko‘pincha xafa bo‘lib qoladi va ich-ichidan o‘zini bolalari oldida gunoxkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi, yolgiz ota-onalarning shaxsiga qo‘yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo‘lib, nixoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunga afsuski, hamma ham chidayvermaydi. Lo‘nda qilib aytganda bolaning katta bo‘lgandagi xulqi bizning unga bolaligida qilgan muomalamizning aks etishidir. Tarbiyada qattiqqo‘llik yumshoq ko‘ngillikka nisbatan bir necha barobar ortiq ziyon keltiradi. Yuqorida aytganimizdek bolaga qanday muomala qilsak, shavqatsizlik qilsak shavqatsizlik, qo‘pollik qilsak qo‘pollik, befarlik qilsak befarqlik, loqaytlik qilsak loqaytlik qaytadi. Chunki bola qaysi tajribani o‘zlashtirsa, xayotda xam shu tajribani qo‘llaydi. Ammo, afsuski, ko‘pgina ota onalar bolaning bebosh qilib qo‘ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg‘udan cho‘chiydilar. Ular bola o‘zini sevishlarini yaxshi bilib olsa, u tantiq, shaxsiyatparvar bo‘lib qoladi deb o‘ylaydilar. Shu xildagi juda ko‘p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to‘g‘ri erkalanishidan, etiboridan maxrum bo‘lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun xam bolada o‘zini sevishga, o‘ziga g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishiga ishonch xosil qilish ota-onaning muxim vazifasidir. Xech qachon bolada

ota-onaning unga bo‘lgan muxabbatiga shubxa paydo bo‘lmasligi kerak. Bolaga avvalo ota-onalarning mehribonligi zarur.

Ota-onalar uchun foydali maslahatlar

- Farzandingizning qiziqishi, ijodkorligini, fikrlar originalligini qo‘llab-quvvatlang;
- hech qachon bolaga boshqalardan yomonroqsan deb ayta ko‘rmang, uni boshqa bolalar bilan taqqoslamang;
- bolaning har bir savoliga imkon qadar rost va sabr bilan javob berish lozim;
- har kuni farzandingiz bilan yolg‘iz qolish uchun vaqt ajratishga harakat qiling;
- bolani faqatgina tengdoshlari bilangina emas balki kattalar bilan ham erkin va bermalol muloqot qila olishga o‘rgating;
- bolaga nisbatan o‘z hissiyotlaringizni baholashda rostgo‘y bo‘ling;
- bolaga har doim rost gapiring, agar bu siz uchun foydasiz bo‘lsa ham;
- bolani aybi uchun jazolamoqchi bo‘lsangiz (masalan, biror bir narsani sindirib qo‘ysa yoki kiyimini iflos qilib kelsa) unga ayni vaqtdagi aybi uchun tanbeh bering;
- kuch bilan bolaga ta’sir o‘tkazmang, majbur qilish bolaning ma’naviy tarbiyasiga, shaxsini rivojlanishi uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
- bolangiz xato qilishga haqli ekanligini tan oling;
- bolaning yodida faqat baxtli onlar muhrlanib qolishiga harakat qiling;
- hech bo‘lmaganda ba’zi-ba’zida bolaning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring, ana shundagina bolaga qanday munosabatda bo‘lishingizni anglab yetasiz.

Farzandlarimizning tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta’sir etadigan quyidagi fikrlarga kundalik turmushimizda amal qilsak, kelajak avlodning mustaqil fikr egasi, ma’nan va aqlan barkamol bo‘lib yetishishiga, davlat va jamiyatimizning ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga erishamiz.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Rasulov Abdumumin Ibragimovich. Psixodiagnostika. (O‘quv –metodik qo‘llanma) Toshkent-2009.
2. R.M.Maxmudov, B.N.Sirliyev. Pedagogik psixologiya. Toshkent-2011.
3. Ontogenez psixologiyasi. Ergash G‘oziyev. "Noshir" Toshkent 2010.
4. Tibbiyot psixologiyasi. Zarafboy Ibodullayev. Toshkent, "Istiqlol" -2006.